



ЎЗБЕКISTОН RESPUBLIKASI OLIY VA
ЎRTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКISTОН ЖУРНАЛИСТИКА ВА
ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИ



ЎЗБЕКISTОН ЖУРНАЛИСТЛАРИ
ИЖОДИЙ УЮШМАСИ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI

**“OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI: TAHLIL,
TASNIF, QIYOS” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA**

A X B O R O T X A T I

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 33 yilligi munosabati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasidan O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi hamda Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2022-yil 30-noyabr kuni **“Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

Anjuman ilmiy yo‘nalishi quyidagi sho‘balar asosida maqolalar qabul qiladi:

- ✓ jurnalistikada til va uslub muammolari;
- ✓ o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi;
- ✓ adabiyotshunoslik muammolari;
- ✓ notiqlik mahorati;
- ✓ publitsistika va badiiy tahlil;
- ✓ mediamatnlar tahlili va tahriri;
- ✓ tarjima mahorati: OAVdagi tarjima matnlari tahlili;
- ✓ medialingvistika nazariyasi va amaliyoti;
- ✓ audiovizual jurnalistikada medialingvistika masalalari;
- ✓ PR: mahorat masalalari.

Konferensiya ishchi tillari: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, turk.

Konferensiyani o‘tkazish tartibi: joriy yilning **30-noyabr kuni soat 10.00da ZOOM** dasturi orqali o‘tkaziladi.

Konferensiyada ishtirok etish shakli: yalpi/yo‘nalishlar bo‘yicha videoma‘ruzalar; muhokamalarda ishtirok etish.

Maqola va tezislarni rasmiylashtirishning texnik talablari: matn hajmi – 3-5 bet, Microsoft Word formatida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattalikda, 1,5 intervalda, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm joy qoldirib yoziladi. Maqolaning yuqori qismi o‘rtasida maqola sarlavhasi bosh harflarda, keyingi qatordan o‘ngda muallif haqida ma‘lumotlar: ismi-sharifi, ilmiy daraja va unvoni (agar bo‘lsa), oliy o‘quv yurti nomi va telefon raqami keltiriladi. Shuningdek, annotatsiya, kalit so‘zlar berilib, foydalanilgan adabiyotlarga ishoralar kvadrat qavslarda [manba raqami, sahifa raqami] beriladi va maqolada ko‘rsatilishi bo‘yicha tartiblanadi. Maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati matndagi tartib bilan

keltirilish lozim. Fayl nomi muallif familiyasi bilan mos kelishi kerak. Masalan: Mirzaeva N. – maqola.

Anjuman to‘plamida e‘lon qilinadigan maqolalar uchun **umumiy to‘lov 30 000 so‘m**. Talabalar uchun bepul.

Konferensiya materiallari elektron to‘plam shaklida taqdim etiladi.

Tashkilotchilar maqolalarni saralash va tahrir qilish huquqiga ega.

Maqola va tezislari **2022-yil 20-noyabrga** qadar qabul qilinadi.

*Manzil: O‘zJOKU Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası,
Toshkent shahri, Markaz 5/Qiyot 88.*

Elektron manzil:

t.me/uzjoku_konferensiya2022

media.lingvistika@mail.ru

Murojaat uchun telefon raqamlari: +998912289001 (Gulnoza Jo‘raqulova);
+998909930577 (Aziza Siddiqova).